

6. V.I. Zvonnikov *Provedenie monitoringa kachestva obrazovaniya: Metodicheskie rekomendatsii* / V.I. Zvonnikov , N.F. Efremova , N.N. Naydenova , M.B. Chelysheva . - M.: Issledovatel'skiy tsentr problem kachestva podgotovki spetsialistov, 2008. - 64 p.

7. E.V.Tkachenko *Upravlenie kachestvom professionalnogo obrazovaniya v usloviyakh sotsialnogo partnership*/ E.V.Tkachenko // *Kachestva professionalnogo obrazovaniya: opyt, problemy, perspektivy: materialy mejregion . Nauch.- Prak . _ Conf . Ch. II / GOU Kripro . - Kemerovo, 2004. - S. 8-13.*

OLIV TA'LIM XIZMATLARI QURILISH INDUSTRIYASINI BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANTIRISH OMILI SIFATIDA

Aliev Paraxat Keunimjaevich

Qoraqalpoq davlat universitet, stajor-o'qituvchi

Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish jarayonida yangi ilmsig'imli va yuqori texnologiyali sanoat tarmoqlari yaratishning zarur shartlaridan biri - inson salohiyatini rivojlantirish va ta'lim sifatini oshirishdir .

Qurilish materiallari sanoatidagi mavjud vaziyat va kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan o'zgarishlar tendensiyasi tahlili shuni ko'rsatadiki, sohada ma'lum yutuqlarga erishilgan, ammo samaradorlikni oshirish uchun katta imkoniyatlar hali amalga oshirilmagan.

O'zbekiston minerallarga boy er osti boyliklari mavjudligi bilan ajralib turadi, unda o'nlab turli xil foydali qazilmalar aniqlangan. Rangli metallar va yoqilg'i-energetika resurslarining boy zaxiralari mavjud. O'zbekistonda marmar, granit, ohak soda va noruda materiallarning boy konlari mavjud bo'lib, ular qurilish materiallari sanoatining xom ashyo salohiyatini shakllantiradi va milliy iqtisodiyotni samarali rivojlantirish uchun asos bo'ladi.

Mavjud prognozlar yuqori xususiyatlarga ega bo'lgan yirik foydali qazilma konlarining mavjudligini ko'rsatadi [7].

Qurilish materiallari sanoati investitsion qurilish majmuasida asosiy o'rinni egallaydi. Qurilish va qurilish materiallari sanoati o'rtasida zamonaviy innovatsion rivojlanish sharoitida ikki tomonlama yo'nalishga ega bo'lgan innovatsion xarakterdagi aloqalar mustahkamlanadi va bu o'rganilayotgan sohaning raqobatbardoshlik darajasiga ta'sir qiladi.

Lekin, ayrim tadqiqotchilar [6] tomonidan olib borilgan tadqiqot ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, sohada quyidagi ayrim kamchiliklar mavjud:

1. Korxonalarining ishlab chiqarish quvvatlaridan past darajada foydalanishi;
2. Korxonalarining irratsional dislokatsiyasi;
3. Ishlab chiqarish texnologik darajasinin pastligi;
4. Xom ashyo potensialidan to'liq foydalanmaslik va tor mahsulot assortimenti;
5. Ishlab chiqarish xarajatlarining yuqori darajasi (ayniqsa energiya xarajatlari);

6. Mehnat unumdorligining past darajasi;

7. Mashina va uskunalarning me'yoriy yangilanishini ta'minlash uchun mablag' etishmasligi;

8. Korxonalarining innovatsion faolligining past darajasi;

Bunday sharoitda oliy ta'limning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi roli va ta'siri barqaror va sifat jihatidan o'sib bormoqda, chunki yangi texnika va texnologiyalarni samarali o'zlashtirish, yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni rivojlantirish, innovatsiyalarni amaliyotga joriy etish tegishli kadrlarsiz va oliy o'quv yurtlarining bevosita faol ishtirokisiz o'tkazish mumkin emas.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan ulkan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar oliy o'quv yurtlariga ta'lim, ilmiy-texnik, madaniy-ma'rifiy markazlar sifatida yangi talablar qo'yimoqda. Bu, albatta, oliy ta'limning iqtisodiyot tarmoqlarini, shu jumladan qurilishni innovatsion rivojlantirishdagi ishtiroki bilan bog'liq. Ta'kidlash joizki, bu borada ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda va bu yo'nalishda katta zaxira va salohiyat mavjud.

Tarmoqlarni innovatsion rivojlantirishda oliy o'quv yurtlarining roli faqat bu bilan cheklanmaydi, chunki pedagogik va ilmiy salohiyat bizga qo'shimcha xarajatlarni talab qilmaydigan bir qator boshqa vazifalarni amalga oshirishga imkon beradi. Bu, birinchi navbatda, oliy o'quv yurtlarida biznes-inkubatorlarni yaratish va rivojlantirishga taalluqlidir. Oliy o'quv yurtlarilarida biznes-inkubatorlarni ochishning jozibadorligi shundaki, bunda ish kunining ikkinchi yarmida asosan "bo'sh" bo'lgan zarur moddiy-texnik bazaning va deyarli barcha oliy o'quv yurtlarilarida zarur o'qituvchilar tarkibining mavjudligi. Barcha hududlarda oliy o'quv yurtlarini joylashtirish imkoniyatining mavjudligi o'z biznesini yaratish va yuritish sohasida bilim olishga intilayotgan aholining katta guruhini qamrab olishni ta'minlaydi[2]. SHu bilan bir qatorda, ushbu faoliyat oliy o'quv yurtlarining moddiy-texnik bazasini yanada mustahkamlash va pprofessop o'qituvchilarni qo'shimcha rag'batlantirish uchun qo'shimcha moliyaviy resurslar oqimi bilan ta'minlaydi.

Iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish uchun oliy o'quv yurtlari faoliyatining yana bir muhim yo'nalishi potensial tadbirkorlarga biznes loyihalari to'g'risida ma'lumot berishdir. Bu shuni anglatadiki, ko'plab oliy o'quv yurtlarida turli xil ilmiy va texnik ishlanmalar mavjud bo'lib, ular potensial tadbirkorlar uchun foydali bo'lishi mumkin[6].

Oliy o'quv yurtlari ilmiy tadqiqotlar va ishlab chiqarish o'rtasidagi mavjud bo'shliqni to'ldirish uchun oliy o'quv yurtlarida venchur korxonalarini yaratishni faollashtirish orqali sanoatning innovatsion rivojlanishida bevosita ishtirok etishi mumkin. Buning sababi shundaki, mahalliy oliy o'quv yurtlari olimlarining ko'plab samarali ishlanmalari, afsuski, ishlab chiqarishga yo'naltirilmadan qolib ketmoqda.

Bizning fikrimizcha, mahalliy oliy ta'lim muassasalarining salohiyati etarli darajada amaliyotga tadbiiq etilmayabdi. Buning oqibatlarini nafaqat tadqiqot va ishlanmalarni amalga oshirish hisobiga oliy ta'lim muassasalariga byudjetdan tashqari mablag'larning kam kirib kelishida, balki bevosita professor-

o'qituvchilarning malaka darajasining pasayishida ham namoyon bo'ladi. Chunki ilmiy tadqiqot ishlanmalari yoki konsalting xizmatlarini ko'rsatish uchun professor-o'qituvchilardan doimiy ravishda o'z salohiyatini oshirib borish talab etiladi. Bu esa professor-o'qituvchilarni dolzarb ilmiy, texnik va boshqa muammolarni hal qilishda ko'proq izlanishga undaydi.

YUqoridagilardan kelib chiqqan holda biz, jadvalda aks ettirilganidek oliy ta'lim muassasalarda o'quv, axborot-tahlil markazlarini yaratish zarur deb hisoblaymiz (1-jadval).

1-jadval

Oliy ta'lim muassasasi o'quv, axborot-tahlil markazlarining asosiy vazifalari

Faoliyat turi	Vazifalar
Konsalting	<ul style="list-style-type: none"> • korxonalarni yo'naltirish hamda venchur investorlarni jalb qilish; • venchur investorlar bilan aloqaga kirishishda, shu jumladan, venchur yarmarkalari doirasida korxonalarni ekspert yordami bilan ta'minlash; • mintaqada innovatsion korxonalariga konsalting yordami
Ta'lim va treninglar	<ul style="list-style-type: none"> • potensial investor bilan o'zaro hamkorlik qilish uchun amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish, bu holda eng muhimi, venchur investitsiyalarini muvaffaqiyatli jalb qilish uchun korxonalar menejerlarining o'z biznes loyihalarini samarali taqdim etish ko'nikmalarini rivojlantirish; • innovatsion sektorni rivojlantirish va venchurli moliyalashtirishda qulay muhit yaratish uchun mas'ul bo'lgan korxonalar vakillari va mintaqaviy davlat xizmatchilari uchun treninglar o'tkazish va konsaltinglar tashkil etish
Axborot	<ul style="list-style-type: none"> • turli xil aloqa tadbirlarini o'tkazish (hududlarda venchur yarmarkalari, davra suhbatlari, tematik konferensiyalar, seminarlar va h.k.) va innovatsion faoliyatning asosiy sub'ektlariga konsalting va axborot xizmatlarini ko'rsatish

Oliy ta'lim muassasasining yuqori imidjini yaratish amaliy maqsadga ega bo'lib, ko'proq abituriyentlarni jalb qilish, kompaniyalar, jamoat tashkilotlari va turli fondlar bilan aloqalarni o'rnatish, natijada oliy ta'lim muassasasiga moliyaviy resurslar oqimining ko'payishini ta'minlashdan iborat.

Oliy ta'lim muassasalarining innovatsion jarayondagi ishtirokini rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan yana biri bu kadrlar malakasini oshirish sohasidagi faoliyatni kuchaytirishdir.

Ta'kidlash joizki, jahon amaliyotida ta'lim tizimi samaradorligini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ba'zi hollarda ta'lim berish davomiyligini oshirish tendensiyasi mavjud, bu shaxsning ishlab chiqarish faoliyati davomiyligini qisqartirishni anglatadi. Bularning barchasi oliy ta'lim ushbu yangi muammolarga munosib javob berishi va yangi muammolarni samarali hal qilishi kerakligini anglatadi. SHu bilan birga, ta'limning yangi usullari hamda shakllarini yaratish va

qo'llashga, shuningdek, talabalar o'rtasida innovatsion, ijodiy fikrlashni shakllantirishga e'tibor qaratish lozim.

Xulosa qilib aytganda, oliy o'quv yurtlarining yuqori salohiyati qurilish kabi muhim fond yaratuvchi sohaning innovatsion rivojlanishiga katta hissa qo'shish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Asamatdinov M.O. *Mahalliy xom ashyo asosida suvoq qorishmasining tarkibi va xossalarini shakllantirish. Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati.*- Toshkent, 2020.

2. Axliiddinov u dr. "Управление образованием в Узбекистане: проблемы, поиск, решения". Т. "Ес-ТАСИС". 1999.

3. Ilyasov A.T. *Mahalliy xom ashyo asosida samarali devorbop keramik buyumlarning strukturasi, tarkibi va xossalarini shakllantirish. Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati.*- Toshkent, TAQI, 2018.

4. Корзникова Г.Г. *Менеджмент в образовании.* М., "Академия", 2008 г.

5. Najimov I.P. *Qurilish materiallari sanoati korxonalarining barqaror rivojlanishini ta'minlash (Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida). Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati.*- Toshkent, 2021.

6. Сагинова О.В. – *Маркетинг высшего образования: основные понятия, новые тенденции и перспективы,* М. 2006.

7. <https://map.uzgeolcom.uz>

TA'LIM TIZIMINI ZAMONAVIY BOSQICHGA OLIB CHIQUISH – IQTISODIY YUKSALISH KAFOLATIDIR

Davlatova Nilufar Vosiljonovna

Namangan Davlat Universiteti tayanch doktoranti

Bugungi kunda jahonda kechayotgan globallashuv va texnologik qurollanish bosqichida ilm-fan, real ishlab chiqarish va texnika-texnologiyalarning rivojlanishi natijasida malakali, intellektual salohiyatli kadrlarga talab kuchayib bormoqda.

Qaysi bir rivojlangan mamlakatning iqtisodiyotiga razm qolmaylik, YaIMning yuqori sur'atlarida o'sib kelishiga inson kapitalining o'rni beqiyosligini ko'rishimiz mumkin. O'z navbatida, mamlakatning eksport salohiyati, innovatsion mahsulotlar, hududlarda maxsus iqtisodiy zonalarining tashkil etilishi qolaversa, daromad olib keluvchi g'oyalar, patentlar, nou-xau va venchur loyihalarning yaralishida davlat tomonidan ta'lim tizimi ilmiy faoliyatini konstruktor-texnologik ta'minlash orqali erishiladi.

Hozirgi kunda ta'lim tizimi barcha mamlakatlar uchun asosiy ustuvor beriladigan tarmoq sifatida qaralmoqda. Chunki, mamlakat istiqboli, kelajagi aynan yoshlar qo'lida ekanligi barchamizga ma'lum. Aynan yoshlarning tanlagan sohalari bo'yicha zaruriy bilimlar berish, ularning ko'nikmalarini shakllantirish ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb masala hisoblanadi. Mamlakat tayanchi va pirovard asosi aynan pul bilan bog'liq munosabatlarda shakllanganligi tufayli